



UO'K: 821.109.11

Maxfuza TAIROVA,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

E-mail: abdusattorova@mail.ru

Termiz davlat universiteti katta o'qituvchisi, PhD O'.Xudonazarova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAMLAKATSHUNOSLIK TERMINLARI VA ULARNING LINGVISTIK ASPEKTLARI: TUSHUNCHALARI, YO'NALISHLARI, O'RGANILISHI

Аннотация

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlarining mazmun-mohiyati, lingvistik xususiyatlari, ularning tarjima jarayonidagi muammolari hamda o'zaro taqqoslash asosida o'rganish yo'nalishlari tahlil qilinadi. Terminlarning leksik-semantik tahlili, madaniy-boshqa kontekstlardagi farqlanishi va ularni o'qitishda qo'llanishi bo'yicha ilmiy fikrlar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Termin, lingvistika, kontekst, tuzilish, aspekt, shakl, semantik, tahlil, grammatik tuzilish, mamlakatshunoslik.

ТЕРМИНЫ СТРАНОВЕДЕНИЯ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ: ПОНЯТИЯ, НАПРАВЛЕНИЯ, ИЗУЧЕНИЕ

Аннотация

В статье рассматриваются страноведческие термины в английском и узбекском языках с точки зрения их лингвистических особенностей, семантики, переводческих аспектов и направлений изучения. Особое внимание уделяется сравнительному анализу терминов, их функционированию в культурных контекстах и применению в образовательной практике.

Ключевые слова: Термин, лингвистика, контекст, структура, аспект, форма, семантика, анализ, грамматическая структура, страноведение.

COUNTRY STUDIES TERMINOLOGY IN ENGLISH AND UZBEK AND THEIR LINGUISTIC ASPECTS: CONCEPTS, DIRECTIONS, AND RESEARCH

Annotation

This article analyzes country studies terminology in English and Uzbek, focusing on their linguistic features, semantic nuances, translation challenges, and comparative study directions. It highlights differences in cultural and contextual usage, as well as the role of such terms in educational settings and intercultural communication.

Key words: Term, linguistics, context, structure, aspect, form, semantics, analysis, grammatical structure, country studies.

Kirish. Ma'lumki, til tizimining xususiyatlariga qarab, har bir tilning leksik qatlamini kuchaytiruvchi va kengaytiruvchi manbalar mavjud. Bu manbalar ichki va tashqi manbalar deb yuritiladi. Shunday qilib, "har bir til lug'at boyligining boyishi uning o'z ichki imkoniyatlariga va boshqa tildan o'zlashtirilishiga asoslanadi, bu lingvistik adabiyotlarda qayd etilib, hamma tomonidan e'tirof etiladi" [1].

Amaliy tilshunoslikning eng muhim mavzularidan biri sohaga oid terminologik tizimlarni ishlab chiqish va ularni qo'llashdir. Zamonaviy fanda terminologiyani o'rganishning maqsadi nafaqat mavjud, barqaror terminologiyani tadqiq etish, balki yangi terminologiyani shakllanishiga olib keladigan jarayonlar va rag'batlantiruvchi omillarni chuqur tahlil qilishdan iborat. Bu o'z ichiga termin alohida til birligi sifatida aks ettiradigan asosiy o'lchamlar va xususiyatlarni aniqlashni oladi. Jumladan, uning tuzilish-shakliy munosabatlarini belgilash, tarixiy va termin yasash xususiyatlarini o'rganish hamda semantik qiymatini tahlil qilish nazarda tutiladi. Ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlari va ularning lingvistik aspektlari: tushunchalari, yo'nalishlari, o'rganilishi jarayonida uning rivojlanishiga hissa qo'shadigan ichki va tashqi manbalarni aniqlaymiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz va o'zbek tilining tarixiy taraqqiyot davrlarini o'rganishdan ma'lum bo'ladiki, mamlakatshunoslik terminlari qadimdan ikkala tilda ham birdek faol bo'lgan va tilning lug'at boyligini bir necha jihatdan kengaytirishda yetakchilik qilgan. Bunday ta'sir natijasida o'zbek tili lug'at tizimida, xususan,

mamlakatshunoslik terminologiyasida tashqi manba, ya'ni chet tillardan so'z o'zlashtirish ichki manba, ya'ni o'zbek tilining ichki imkoniyatlariga nisbatan yetakchi mavqega ega ekanligi tasviri yuzaga keladi.

O'zbek tili mamlakatshunoslik terminologiyasida o'z qatlam va o'zlashma qatlam birliklarining nisbati turlicha bo'lishiga qaramay, har ikkala manba ham o'zbek tili lug'at tizimi taraqqiyotida o'ziga xos va muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatshunoslik terminlarga berilgan zamonaviy ta'riflarning aksariyati uning tushunchaga munosabatiga qaratilgan. Bu tavsif ko'rib chiqilayotgan lingvistik mohiyatni aniqlash uchun eng muhim hisoblanadi. Masalan, A.V.Superanskiy "fanda termin va tushuncha munosabati birinchi o'ringa chiqadi", deb ta'kidlagan edi. Fikr obyekti har doim terminning orqasida turadi, lekin umumiy fikr emas, balki muayyan sohaga tegishli bo'lgan aniq fikr. Bu termin ilmiy konsepsiyaga bevosita aloqador [2].

M.Abdiyev o'z tadqiqotida ushbu masalalarga to'xtalib, "soha iboralari va terminlarining tizimli tabiatini, ya'ni tizimning tub mohiyatini tushunish ularning genezisini tadqiq qilish uchun muhim ekanligini ta'kidlaydi. Olim o'z tadqiqoti natijasida terminologik va leksik so'z taraqqiyoti o'rtasida ma'lum farqlar mavjud degan xulosaga kelgan: Har bir terminologik tizim terminlarning qanday shakllanishiga doir o'ziga xos tamoyillar majmuiga ega" [1].

A.I.Popov nomlarning kelib chiqishini aniqlashda tarixiy kontekst va mahalliy geografik xususiyatlarni hisobga

olmagan holda faqat filologik tadqiqotlarga tayanish har doim ham to'g'ri emasligini ta'kidlaydi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslik terminlari va ularning lingvistik aspektlarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lib, unda analiz, sintez, lingvokulturologik tahlil, semantik tahlil kabi metodlardan samarali foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o'zbek tillarida mamlakatshunoslikka oid terminlar orasida o'xshashlik va farqlar mavjud. Mamlakatshunoslikning asosiy tushunchalarini ingliz va o'zbek tilida solishtirganda, ko'plab terminlar aynan tarjima qilingan, lekin ba'zi bir so'zlar yoki ifodalar har bir tilga mos tarzda o'ziga xos shaklda rivojlangan. Masalan, Geography (geografiya) [5] – bu termin ingliz tilida keng qo'llanilib, tabiiy va ijtimoiy jarayonlarning joylashuvi hamda ta'sirini o'rganadi. O'zbek tilida ham “geografiya” termini keng tarqalgan. Political system (siyosiy tizim) [5] – ingliz tilidagi termin siyosiy tashkilotlar va hokimiyatni tashkil etadigan tizimni anglatadi, o'zbek tilida esa “siyosiy tizim” yoki “davlat tizimi” ko'proq ishlatiladi.

Mamlakatshunoslikni lingvistik nuqtai nazardan o'rganish, turli tillardagi so'zlarning semantikasi, morfologiyasi va sintaksisiga ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, ingliz tilida “culture” termini turli shakllarda ishlatilib, zamonaviy siyosat, iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga oid ko'plab sohalarida qo'llanadi. O'zbek tilida esa, bu termin ba'zan boshqa tushunchalar bilan birgalikda (masalan, “xalq madaniyati”, “milliy madaniyat”) ishlatiladi, bu esa tilning ma'naviy va ijtimoiy kontekstini ham aks ettiradi.

Mamlakatshunoslik (yoki geosotsiologiya) sohasida o'rganilgan terminlar asosan mamlakatlar, ularning geografiyasi, siyosiy tuzilmasi, iqtisodiyoti, madaniyati va jamiyatlari bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi. Quyidagi ba'zi mamlakatshunoslik terminlari va ularning ma'nolarini tahlil qilamiz:

Geografik hudud – biror mamlakatning tabiiy va sun'iy chegaralari ichidagi yer maydoni.

Mamlakat tizimi – dunyo mamlakatlarining siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganadigan fan.

Milliy davlat – o'zining chegaralari, davlat tuzilishi va siyosiy hokimiyatiga ega bo'lgan mamlakat.

Iqtisodiy mustaqillik – mamlakatning o'z iqtisodiy tizimini boshqarish va rivojlantirishga qodirligi.

Madaniy meros – mamlakatning tarixiy va madaniy an'analar, o'ziga xos urf-odatlar va yodgorliklari.

Siyosiy tuzilma – mamlakatning hukumat shakli, boshqaruv tizimi va siyosiy institutlari.

Demografik ko'rsatkichlar – mamlakat aholisining soni, tarkibi va joylashuvi bilan bog'liq statistikalar.

Globalizatsiya – dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy jihatdan bir-biriga bog'lanishi jarayoni.

Etnozentrizm – o'z millatining boshqa millatlarga nisbatan ustunligini his qilish va uni boshqa madaniyatlar bilan taqqoslash.

Interkulturalizm – turli madaniyatlarining o'zaro munosabatlar, hamkorlik va o'zaro hurmat asosida rivojlanishi [3].

Mamlakatshunoslikda til hodisalarining xilma-xilligini tavsiflash usuli ko'pincha lingvistik diversifikatsiya yoki til diversifikatsiyasi deb ataladi. Bu usul, odatda, mintaq yoki mamlakatdagi turli tillar, shevalar va til o'zgarishlarini tahlil qilish va ularning o'zaro bog'liqligini o'rganishga qaratilgan. Ushbu tavsifda quyidagi jihatlar hisobga olingan. Masalan:

Lahja va dialektlar – biror tilning turli hududiy variantlari. Har bir lahja yoki dialekt, o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

Tillararo aloqalar – turli tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir va ularning bir-birini qanday o'zgartirishi.

Bilingvizm va ko'p tillilik – odamlarning ikki yoki undan ortiq tilni bilish va foydalanish imkoniyati, shuningdek, jamiyatlarda turli tillarning mavjudligi.

Tillarning tarixi va evolyutsiyasi – til hodisalarining tarixiy rivojlanishi va yangi til shakllarining paydo bo'lishi.

Sotsiolingvistik faktorlar – tilning jamiyatdagi o'rni, til siyosati, etnik guruhlar orasidagi til farqlari va tilni qo'llashda ijtimoiy faktorlarning rolini o'rganish. Bu usul mamlakatning madaniy va til xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi [5].

Terminologiyadagi har bir tushunchaning semantik belgilari bir-biriga mansublik jihatlarini asosida mustaqil ravishda o'rganiladi. Sohaviy terminlar tahlil qilinadi, turkumlanadi va terminologiya amaliyoti jarayonida foydalanishga tayyorlanadi. Soha terminologiyasida qaysi sohaga tegishli terminologik qatlamga kirishiga qarab, maxsus so'z tarkibiga egaligi, varianti va farq qiluvchi morfologiyasi mavjud. So'z yasash tizimidan esa ko'plab qo'shma so'zlar o'rin olgan. Shuning uchun bu qo'shma so'zlar ifodalagan tushunchalar murakkab xossa-xususiyatga egaligi bilan leksemalardan farqlanadi. Masalan, ingliz tilida “democracy” “geopolitics”, “nationalism”, [2], o'zbek tilida esa “geosiyosat”, “millatchilik”, “demokratiya” kabi terminlar.

Mamlakatshunoslik terminlari muayyan tarixiy sharoit mahsuli bo'lib, mahalliy yoki sobiq aholining ijtimoiy hayoti va tili bilan chambarchas bog'liq. Aniqrog'i, har bir tarixiy davr o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular o'z hududiy nomlarida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda hududiy nomlar tarkibida mavjud bo'lgan leksik-geografik qatlam asosida respublikamiz bo'ylab keng tarqalgan quyidagi yettita qatlamni ajratish mumkin:

1.Sug'diy (Andagin, Andugon, Asaka, Jizzax, Mug'on, Porasht, Novqa, Nushkent, Pishag'ar);

2.Forsiy (Duoba, Chortog', Peshku, Tagob, Tangi, Sangzor, Garasha, Chorbog', Navro'z);

3.Turkiy (Qorasoy Qorabo'yin, Qorakaltak, Qo'g'ay, Puchug'oy, O'rtaqishloq, Yoyilma, Tuyuqli, Tuyachi, Tumor, Qirq, Bolg'ali, Kaltatoy, Ming);

4.Arab (Aravon, Arabmozor, Arabqishloq, Arabto'pi, Toshloqarab, Tojikarab, Cho'jaarab, Qizilarab, Mirarab, Kattaarab, Kichikarab, Talli, So'fimo'zor, Juma, Mavtan, Avliyo, Ravot, Hulkar);

5.Mo'g'ul (Arg'in, Axtachi, Do'rmon, Darxon, To'qay, Yomchi, Ungut, Sayxan, Sulduz, Ko'tal, Jaloyir, Mo'g'ol, Saroy, Nayman, Qo'nji, Qo'riq);

6.Slavyan (Ittifoq, Ulyanovo, Oktyabr, Partsyezd, Kommunizm, Rassvet);

7.Yangi qatlam (Istiqlol, Nurafshon, Istiqbol, Baxtli, Mustaqillik, Bunyodkor, Yangiturmush) [6].

Mamlakatshunoslik terminlari tarkibi, yasalishi va grammatik tuzilishiga ko'ra lingvistik jihatdan guruhlariga ajratiladi. Ular tuzilishiga ko'ra ikki toifaga bo'linadi: sodda va murakkab toponimlar. Bir so'zli nomlar oddiy toponimlar sifatida ma'lum. Ular tub terminlar asosida bir turkumga bo'lindi. Ushbu turga xos nomlarda quyidagi ma'nolarga ega so'zlar qo'llaniladi:

Sohadagi inglizcha va o'zbekcha terminlar o'rtasida ba'zi umumiyliklar mavjud bo'lsa-da, tarixiy, madaniy va lingvistik farqlar ularni bir-biridan ajratib turadi. Ingliz va o'zbek tillaridagi mamlakatshunoslik terminlarining asosiy maqsadi geografik obyektlar va hodisalarni tasvirlash hamda izohlashdan iborat. Misol uchun, ingliz tilidagi “mountain” va o'zbek tilidagi “tog'” so'zlari bir xil ma'noni anglatib, yer yuzasidagi baland qismlarni ifodalaydi.

O'xshash jihatlar quyidagi misollar orqali ifoda qilingan:

O'zbek tilida mamlakatshunoslikka xos “shahar” termini ingliz tilida “city”. Har ikkala tilda ham “shahar” yoki

“city” terminlari odamlar yashaydigan yirik aholi punktlarini anglatadi. Hozirgi kunda mamlakatshunoslik terminlar muammosining o‘rib borishini ikki omil bilan izohlash mumkin. Ulardan biri shundaki, fanning dinamik rivojlanishi natijasida paydo bo‘ladigan yangi g‘oyalar soni terminlarning shakllanish jarayoni, taraqqiyoti va vazifasi kabi o‘rganilgan masalalar sonidan oshib ketadi. Til har doim ijtimoiy hayot bilan birga rivojlanib kelgan va globallashuv, ayniqsa, XXI asrda til taraqqiyotining yetakchi qonuniyatlaridan biriga aylanib, ijtimoiy hayotga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Mamlakatshunoslik terminlariga ma‘lum bir mamlakat yoki mintaqadagi hodisalar, institutlar, amaliyotlar, an‘analari, geografik xususiyatlar, madaniy me‘yorlar va tarixiy voqealarni tavsiflash uchun ishlatiladigan maxsus terminlar kiradi. Ushbu terminlar ko‘pincha mamlakatga xos bo‘lib, boshqa tillarga yoki madaniyatlarga o‘zining o‘ziga xos ma‘nosini yo‘qotmasdan yoki noto‘g‘ri tushunmasdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinishi mumkin emas.

Mamlakatshunoslik terminologiyasining fan sohasiga oid doirasi bu terminlarning turli fanlar va tadqiqot sohalarida

qo‘llanilishini anglatadi. Gumanitar, ijtimoiy fanlar, iqtisodiyot va boshqa sohalarda mamlakatga xos terminologiya markaziy ahamiyatni anglatadi, chunki u mamlakatning o‘ziga xos jihatlari aniq tavsiflash va tahlil qilish imkonini beradi. Siyosiy va iqtisodiy fanlarda, aksincha, mamlakatshunoslik terminlari ko‘pincha faqat ma‘lum bir milliy kontekstda ma‘noga ega bo‘lgan siyosiy tizimlar, iqtisodiy tuzilmalar yoki jamiyat sharoitlarini tahlil qilish uchun ishlatiladi. Mamlakatshunoslik terminlari ham mutaxassislar, ham o‘rganuvchilar uchun qiyinchilik tug‘diradi, chunki u ko‘pincha madaniy jihatdan o‘ziga xos va o‘tkazish qiyin. Ayniqsa, tarjimonlik va madaniyatlararo muloqot sohasida mutaxassislar nafaqat matn, balki madaniy kontekstni ham to‘g‘ri yetkazishni ta‘minlashlari kerak.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, soha terminologiyasi ma‘lum bir mamlakat yoki mintaqaning madaniyati, siyosati va jamiyatini yetkazish va tushunishda markaziy rol o‘ynaydi va fanlararo muloqotda aniqlik va tushunarlilikka hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdiyev M. Sohaviy leksikaning sistem tahlili (Samarqand viloyati kasb-hunarlar materiallari asosida): fil.f.d. diss. – Toshkent. 2005. – B. 71.
2. Bo‘tayev Sh. English-uzbek, uzbek-english dictionary. – Toshkent: O‘qituvchi, 2015. – 880 b.
3. Lingvistika ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent: Akademnashr, 2001. – B. 69.
4. O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti. Uch jildlik. 3-jild. Leksika. — Toshkent: Fan, 1991. – B.128.
5. O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [Matn]: lug‘at / tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshq.]. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – B. 19.
6. Попов А.И. Географические названия. Введение в топонимику. – М. 1965. – С. 68.